XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HUDUDIIY IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BOG'LIQLIGI	847
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, Turdimuratova Aziza Alisherovna	
AGRAR ISHLAB CHIQUARISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" KONSEPSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	851
Yusupov Muxiddin Soatovich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI	1099
Azimova Hulkan Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	



AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA

Karimov Abdusamat Ismonovich

University of Business and Science dotsenti

Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna

Andijon davlat texnika instituti katta o'qituvchisi

E-mail: nilufarbustonova39@gmail.com

ORCID: 0009-0009-9532-7455

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholi zich hududlarda kichik biznesning hozirgi holati Andijon viloyati misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot mahalliy infratuzilma, moliyalashtirish, logistika va mehnat resurslari omillarining kichik tadbirkorlik rivojiga ta'sirini empirik ma'lumotlar asosida o'rganadi. Ishda mikroreditlash, biznes-inkubatsiyalar va raqamli savdo imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirish bo'yicha aniq tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, zich hududlar, Andijon, mikroreditlash, logistika, biznes-inkubatsiya, raqamli savdo.

Abstract. This article analyzes the current state of small business in densely populated areas using the example of Andijan region. The study examines the impact of local infrastructure, financing, logistics, and labor resources factors on the development of small businesses based on empirical data. The work provides specific recommendations for increasing socio-economic activity through expanding microcredit, business incubation, and digital trade opportunities.

Key words: small business, densely populated areas, Andijan, microcredit, logistics, business incubation, digital trade.

Аннотация. В статье анализируется современное состояние малого бизнеса в густонаселенных районах на примере Андижанской области. На основе эмпирических данных изучается влияние факторов местной инфраструктуры, финансирования, логистики и трудовых ресурсов на развитие малого бизнеса. В работе представлены конкретные рекомендации по повышению социально-экономической активности посредством расширения возможностей микрокредитования, бизнес-инкубирования и цифровой торговли.

Ключевые слова: малый бизнес, густонаселенные районы, Андижан, микрокредитование, логистика, бизнес-инкубирование, цифровая торговля.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida kichik biznes va tadbirkorlik muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, aholi zich joylashgan hududlarda kichik biznes subyektlarining rivojlanishi nafaqat bandlikni oshirish, balki hududiy iqtisodiyotni mustahkamlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha huquqiy asoslar takomillashtirilib, bu sohaga qator qonuniy hujjatlar qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga binoan, tadbirkorlik faoliyati qonun bilan himoya qilinadi va qo'llab-quvvatlanadi. Shu bilan birga, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari" to'g'risida gi qonun, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi qarorlar ushbu sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlab kelmoqda. Xususan, oxirgi yillarda mamlakatda kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliqlar, kreditlash tizimi, davlat tomonidan rag'batlantirish va xorijiy investorlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari yaratildi.

O'zbekiston aholisi mamlakat bo'ylab notekis taqsimlangan bo'lib, ba'zi hududlarda aholi zichligi ancha yuqori. Aholi zichligi, asosan, tabiiy-geografik omillar, iqtisodiy sharoitlar va infratuzilma rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

Aholi zich joylashgan hududlar iqtisodiy rivojlanishning muhim markazi hisoblanadi. Ushbu hududlarda aholi sonining ko'pligi sababli iste'mol bozori keng bo'lib, kichik biznes uchun katta imkoniyatlar yaratiladi. Kichik



biznes nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va xizmatlar tarmog'ini kengaytirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Kichik biznesning rivojlanishi aholi zich hududlarda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunday hududlarda raqobat yuqori bo'lsada, talabning ham barqarorligi tufayli tadbirkorlar turli biznes modellari muvaffaqiyatli joriy qilishi mumkin. Xizmat ko'rsatish sohasi, chakana savdo, texnologik startaplar va ishlab chiqarish sektori kabi yo'nalishlar aholi zich joylashgan hududlarda kichik biznesning eng rivojlangan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Q.Abdurahmonov[3] tadqiqotida Andijon va boshqa zich hududlarda kichik biznesning aholi bandligini ta'minlashdagi rolini keng o'rganadi. Tadqiqotda mikro, kichik va o'rta korxonalarni (MKO) rivojlantirishga to'siq bo'layotgan infratuzilmaviy, moliyaviy va huquqiy muammolar empirik ma'lumotlar bilan ko'rsatiladi. Abdurahmonov grantlar, mikrokreditlar va mahalliy biznes-inkubatsiya markazlari samaradorligini tahlil qilib, zich hududlarda biznesni rag'batlantirish uchun ijtimoiy-yo'naltirilgan moliyalashtirish va treninglar tizimini kuchaytirishni tavsiya etadi.

B.Tursunov[4] maqolasida transport-logistika va bozorga chiqish imkoniyatlari zich hududlardagi kichik tadbirkorlik uchun hal qiluvchi ekanligini empirik ravishda ko'rsatadi. Andijon misolida o'tkazilgan so'rovlar va tajriba loyiha natijalari shuni bildiradiki, marketing, mahsulot qadoqlash va raqamli savdo platformalariga kirish imkoniyati yetarli bo'lmaganligi biznesning o'sishini susaytiradi. Tursunov ta'kidicha, kichik biznesni samarali qo'llab-quvvatlash uchun mahalliy logistika markazlari va elektron savdo bo'yicha o'quv dasturlari joriy etilishi muhim.

N.Sultonova[5] ilmiy ishida Andijon va shunga o'xshash zich majmualarda banklarda kredit olishdagi byurokratiya va yuqori foiz stavkalari kichik biznes rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishini statistik tahlil bilan tasdiqlaydi. Tadqiqot kredit olish jarayonini soddalashtirish, kredit kafolat tizimini yaxshilash va yosh tadbirkorlar uchun boshlang'ich grantlarni kengaytirish bo'yicha aniq siyosat tavsiyalarini beradi. Sultonovning xulosalari moliya inqiroziga chidamli va ijtimoiy jihatdan inklyuziv kichik biznes muhitini yaratish zaruratini ta'kidlaydi.

Jahon Bankining[6] O'zbekiston bo'yicha hisobotida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun reglament, soliq shakllari va infratuzilma investitsiyalarining ahamiyati ta'kidlanadi. Hisobot Andijon kabi zich joylashgan hududlarda biznesning o'sishini rag'batlantirish uchun biznes-xizmatlar markazlari, one-stop-shop tizimlari va raqamli xizmatlar joriy etishni taklif qiladi. Shuningdek, hisobot mahalliy darajada smal grantlar va jamoaviy kredit mexanizmlari orqali iqtisodiy faollikni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. S.Raxmonov maqolasida[7] Andijon va Markaziy Osiyodagi shahar klasterlari tajribasini tahlil qilib, zich hududlarda ijtimoiy biznes va mikro-sanoatning o'sish potensialini ko'rsatadi. Raxmonov tadbirkorlikni mahalliy resurslar va hunarmandchilik asosida diversifikatsiya qilish, kooperatsiyalar va ko'p tomonlama hamkorlik orqali barqaror daromad manbalarini yaratish zarurligini ta'kidlaydi. U shuningdek, hududiy ta'lim markazlari va mentorlik dasturlarining kichik biznes muvaffaqiyatidagi rolini muhim deb biladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes aholi zich hududlarda bandlik darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ko'p hollarda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari mahalliy aholi uchun asosiy ish beruvchi bo'lib xizmat qiladi. Ular nafaqat doimiy ish o'rinlarini yaratadi, balki vaqtinchalik va mavsumiy ish bilan ta'minlash orqali ham bandlik darajasini oshiradi. Aholi zich hududlarda yirik korxonalar ham mavjud bo'lsa-da, kichik biznes mehnat bozorining barqarorligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Xususan:

- Oilaviy bizneslar va hunarmandchilik mahalliy aholini ish bilan ta'minlashning muhim manbalaridan biridir.
- Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasi bandlik darajasini oshirishda yetakchi o'rin tutadi, chunki u yirik investitsiyalar talab qilmaydi va ko'plab odamlarni ish bilan ta'minlay oladi.
- Startap va innovatsion bizneslar malakali mutaxassislariga zamonaviy ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Bundan tashqari, kichik biznes bandlikni oshirish bilan birga, aholi daromadlarini ko'paytirib, ularning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu sababli, kichik biznesni rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin hisoblanadi (1-jadval).



1-jadval. Andijon viloyatida 2020—2024-yillarda kichik biznes faoliyati asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yillar	Kichik biznes tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi, mlrd.so 'm Y1	Kichik biznesga jalb qilingan investitsiya hajmi, (mlrd.so'm)X1	Kichik biznesda bandlik soni, (ming, kishi) X2	Kichik biznes tomonidan eksport qilingan mahsulot va xizmatlar hajmi, (mln. AQSH dollar) X3
2020	10,18782041	8,656955	6,8976	5,561450566
2021	10,35092807	8,743468	6,9276	5,90699539
2022	10,50630907	9,04392	6,947	6,16898292
2023	10,87906176	9,465068	6,9772	5,850764665
2024	11,04950587	9,904037	7,042	6,070275728

Aholi zich hududlardan biri bo'lgan Andijon viloyati misolida kichik biznesni rivojlantirishining hozirgi holati tahlilini ko'rib chiqamiz. Bu bog'lanish natijalarini bir biri bilan solishtirilganda, viloyatda kichik biznes korxonalarining ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar ulushi kuydagicha ekanligi aniqlandi:

- kichik biznesga jalb qilingan investitsiya (0,986);
- kichik biznesda bandlik soni (0,964);
- kichik biznes tomonidan eksport qilingan mahsulot hajmi (0,521).

Bundan ko'rinib turibdiki, tanlab olingan omillar, ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega ekan. Bu omillar bilan ishlab chiqarish hajmi orasidagi bog'lanishni ekonometrik modeli eng kichik kvadratlar usulidan foydalanib tuzilgan. Tuzilgan ekonometrik modelni ahamiyatligi, unga kiruvchi parametrlari ishonchligi Styudent va Fisher mezonlari bo'yicha tekshirilgan. Korrelyatsion va regression tahlildan so'ng quyidagi uch omilli tenglama olingan:

$$\ln(y) = a_0 + \ln(x_1) + \ln(x_2) + \ln(x_3) \Rightarrow y = e^{14,2} * x_1^{0,83} * x_2^{-1,7} * x_3^{0,09} \quad (1)$$

Bu yerda: y – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

a_0, a_1, a_2, a_3 – ishlab chiqarish funksiyaning parametrlari (o'zgarmas miqdorlar, konstantalar).

x_1 – Kichik biznesga jalb qilingan investitsiya hajmi, (mlrd.so'm).

x_2 – Kichik biznesda bandlik soni, (ming, kishi).

x_3 – Kichik biznes tomonidan eksport qilingan mahsulot va xizmatlar hajmi, (mln.AQSH dollar).

Andijon viloyatida kichik biznesga jalb qilingan investitsiya hajmi va bandliklar sonining o'zgarishini, korxonalar mahsulot hajmini o'zgarishiga ta'sirchanligini ekonometrik modellar asosida tahlil qilganida, 2-darajali polinom model eng samarali bog'liqlikni ko'rsatdi. Buning determinatsiya koeffitsiyenti

$$R^2 = 0,998 \text{ ni tashkil etdi.}$$

Kichik biznes korxonalari tomonidan eksport qilingan mahsulot va xizmatlar qiymatini o'zgarishini, mahsulot hajmi o'zgarishiga ta'sirchanligini ekonometrik modellar asosida tahlili qilganda 3-darajali polinom ko'rinishdagi model eng samarali bog'liqlik ekanligi aniqlandi. Bunda determinatsiya koeffitsiyenti


$$R^2 = 0,749 \text{ ni tashkil etdi.}$$

Yuqoridagi a,b,c-rasmlarda (1) – regression tenglama bo'yicha qurilgan:


a) kichik biznes tomonidan ishlab chiqarish mahsulot hajmini investitsiya hajmiga bog'lik o'zgarishi grafigi(1-rasm);

b) kichik biznes tomonidan ishlab chiqarish mahsulot hajmini aholi bandligi bog'lik o'zgarishi grafigi(2-rasm);


c) kichik biznes tomonidan ishlab chiqarish mahsulot hajmini eksport qilingan mahsulot va xizmatlar hajmiga bog'liklik o'zgarishi grafigi(3-rasm);



1-rasm. Kichik biznesga jalb qilingan investitsiya hajmi, (mlrd.so'm)X1



2-rasm. Kichik biznesda bandlar soni,(ming,kishi) X2



3-rasm. Kichik biznes korxonalari tomonidan eksport qilingan mahsulot va xizmatlar hajmi, (mln.AQSH dollar) X3.



1-2-3-rasm. Kichik biznes tomonidan ishlab chiqarish mahsulot hajmini investitsiya hajmiga(1-rasm), aholi bandligi(2-rasm) va eksport qilingan mahsulot va xizmatlar hajmiga bog'liklik o'zgarishi grafigi(3-rasm);

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yuqoridagi omillar asosida 2030-yilga qadar ekonometrik prognozini amalga oshirildi(2-jadval).

2-jadval. Andijon viloyati kichik biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqargan mahsulot hajmi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning 2030-yilga qadar prognoz parametrlari [1]

Yillar	Kichik biznes tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hajmi, mlrd.so'm Y1	Kichik biznesga jalb qilingan investitsiya hajmi, (mlrd.so'm)X1	Kichik biznesda bandlik soni, (ming, kishi) X2	Kichik biznes tomonidan eksport qilingan mahsulot va xizmatlar hajmi, (mln. AQSH dollar) X3
2025-yil	83923,3	28925,6	1208,6	630,3
2026-yil	103940,9	40146,5	1292,1	1116,4
2027-yil	123408,2	53569,4	1389,4	1987,4
2028-yil	140832,2	69194,3	1500,2	3349,8
2029-yil	155467,9	87021,2	1624,6	5309,9
2030-yil	167086,5	107050,1	1762,7	7974,2

2-jadvalda kichik biznes korxonalari mahsulot hajmini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy va ijtimoiy omillar qatorida kichik biznes korxonalari jalb qilingan investitsiyalar hajmi, sohada band bo'lgan aholi soni hamda kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan va eksport qilingan mahsulotlar hajmi kabi muhim ko'rsatkichlar keltirilgan.

Jadvalda ko'rsatilgan omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sir tahlil qilingan va shu asosda 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun rag'batlantiruvchi iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, aniq va ilmiy asoslangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Ushbu prognozlar viloyatda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyasini belgilashda, resurslarni oqilona taqsimlashda va sohani raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, Andijon viloyati misolida aholi zich hududlarda kichik biznesning rivojlanishi infratuzilma sifati, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, logistika sharoitlari va mehnat bozori holati bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Olib borilgan tahlillar kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha mavjud dasturlar samaradorligini oshirish, kreditlash jarayonlarini soddalashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish ham hudud iqtisodiy faolligini sezilarli oshirishini ko'rsatdi. Shuningdek, Andijon kabi zich hududlar uchun innovatsion biznes-yechimlar, raqamli savdo platformalaridan foydalanish va kooperatsiya tarmoqlarini kengaytirish muhim omillar sifatida namoyon bo'ldi.

Olingan tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

- Kichik biznes uchun kredit va mikromoliyalash jarayonlarini soddalashtirish, foiz stavkalarini pasaytirish hamda garov talablarini yumshatish;
- Aholi zich hududlarda biznes-inkubatsiya markazlari, ko'p funksiyali xizmat ko'rsatish markazlari va raqamli konsalting platformalarini kengaytirish;
- Hududda kooperatsiya asosidagi klaster tizimini kengaytirish, mahalliy xomashyo bazasi va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining o'zaro integratsiyasini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RBQ—328-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2006789>
3. Abdurahmonov, Q.X. (2020). Qishloq va shahar hududlarida kichik biznesni rivojlantirish mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi.
4. Tursunov, B.O. (2021). Agrar va shahar kichik biznesining raqobatbardoshligini oshirish: logistika va bozorga kirish. Journal of Regional Economics, 6(1), 34–48.
5. World Bank. (2023). Uzbekistan: Strengthening the SME Sector for Inclusive Growth. Washington, DC: World Bank Group.



6. Rakhmonov, S. (2022). Regional clusters and microenterprise development in Uzbekistan: Evidence from Andijan. *Central Asian Development Studies*, 3(4), 77–93.
7. Andijon viloyati statistika boshqarmasi - «Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari».
8. THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE DEVELOPMENT OF OUR COUNTRY BN Abdusamatovna - *International journal of advanced research in education* ..., 2023
9. J. M. Jo'rayev, S. E. Abduvaliyev. *Ekonometrika*.– Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2018.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
